PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

MIGIRATSIYA JARAYONIDA BOLALAR HUQUQLARNI HIMOYA QILISH MASALALARI

Odilova Sevaraxon Ibrohimjon qizi
Andijom davlat pedagogika inistituti
huquq ta'limi magistrant
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20257886

ANNOTITATSIYA; Ushbu maqolada bola huquqlari, ularni himoya qilinishining yuridik asoslari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar hamda uning mazmun va mohyati haqida to'laqonli ma'lumot berib o'tiladi va bundan tashqari migiratsiya jarayonida qiynalotgan bollarni huquqlari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

KALIT SO'ZLAR; bola huquqlari, konistitutsiya, insonparvarlik, kelajak, huquqiy erkinlik, ta'lim, huquqy madaniyat, migiratsiya.

Bugungi kunda Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o'stirish, ularning nafaqat o'z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o'z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyekti qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi O'zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Migratsiyadagi shaxslarni xalqaro darajada huquqiy himoya qilish

migrantlarning zaif toifalaridan biri – bolalarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Sababi ushbu maqolada aynan shu ota-onalarning va bollarning migiratsiya masalasi ko'p tomonlama qiynalotganligi ko'rib turibmiz.

Bizga juda ham yaxshi ma'lum-ki «Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda».[1] aynan shu migiratsion jarayonlarda eng ko'p qiynalayotgan toifa bu voyaga yetmagan bolalarning ota - onasi uzuq masofada bo'lganligi uchun sog'inch,mehr va e'tiborsizlik kabi bir qancha masallar qiynab kelmoqda. Ayniqsa har bir voyaga yetayotgan farzandlarning ulg'ayish yoshida o'z ota-onasining yonida bo'lishi qo'llab quvvatlashi juda ham muhumdir.

Aynan shu masala ham bosh qomusimizda to'laqonli huquqiy ma'lumotlar berib o'tilgan. Xusan,o'zbekiston respublikasi yangi tahrirdagi konistittsiyasini XIV bob. Oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlgan bo'lib unda aynan bollar huquqlari haqida to'laqonli ma'lumotlar berib o'tilgan. Xususan; 77-moddasida Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom,

[1] Madumarov Talantbek Tolibjonovich Andijon Davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti decani, Yuridik fanlari doktori, professor. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE

to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.[2]

Yana bulardan tashqari ayan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarni ularga nisbat kamsitishni oldini olish va har bir bola g’amxorlik ostida ulga’ayishga loyiq ekanligini, 1924-yildagi Bola huquqlari deklaratsiyasining qabul qilinishi bolaning huquqiy holatining asosiy qoidalarini e’lon qilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo‘ldi. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatning qabul qilinishi bola huquqlari xalqaro himoya ob’ekti sifatida e’tirof etilganini yana bir bor anglatdi.[3]

shuni Alohida qayd etish kerakki, bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatni shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan quyidagi

dasturiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga egadir. Shu jumladan Har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida yoshlar muammosi doimo diqqat marqazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, bunga yaqqol misol 2008-yilning «Yoshlar yili», 2010-yilning «Barkamol avlod yili», 2014-yilning «Sog‘lom bola yili» deb e’lon qilinishi bolalar, yoshlar va ularning tarbiyasi siyosatining bosh masalasi ekanligini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, bu borada huquqiy madaniyatini, ularning huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida tilga olgan Deklaratsiyada birinchi marta bolaning eng yaxshi manfaatlari tamoyili qayd etilgan. Migratsiyadagi bolalarni himoya qilish nuqtai nazaridan Deklaratsiya kamsitmaslik tamoyili bilan ajralib turadi, bu esa kamsitmaslik uchun asoslarning to‘liq ro‘yxatini taqdim etadi.[4] O‘z navbatida bu Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning qoidalariga ham to‘liq mos keladi. Ijtimoiy nochor bolalarga maxsus muomala, ta’lim va g‘amxo‘rlik qilish masalasi ijtimoiy zaif, ayniqsa, migratsiyadagi bolalarga ham taalluqli bo‘lishi mumkin. Migratsiya holatining oqibatlari bolalarni odam savdogarlari, bolalar qul mehnatidan foydalanish va hokazolar uchun oson o‘ljaga aylantirganda, barcha ko‘rinishdagi qarovsizlik, shafqatsizlik va ekspluatatsiyaning oldini olish tamoyili alohida qayd etilishi lozim, deb hisoblayman.

Demak ushbu maqola o’zbekistonda migiratsiya jarayonida qiynaloyotgan bolalarga bag’ishlanib yurtimizdagi shu sohadagi va shu masalada qiynalayotgan insonlar uchun huquqiy yordam vazifasini o’taydi.

O’zbekiston respublikasing yangi tahrirdagi konistitutsiyasining 78-moddasida Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.[5]

Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalar, shuningdek, aholining boshqa barcha qatlami vakillarining ham bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e’tibor

---

[2] O’zbekiston respublikasi konistitutsiyasi. Yurudik adabiyotlar publish toshkent 2023-77-modda 39-b

[3] CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES. MIGRATSIYA SHAROITIDA BOLA HUQUQLARINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO STANDARTLAR VA MEXANIZMLARNING XUSUSIYATLARI Karimova Sadoqat Gulboevna akademiyasi magistranti-6-b

[4] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York // O‘zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli “1966-yil 16- dekabrdagi fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrdan kuchga kirgan. Elektron manbaa: https://lex.uz/docs/2640479 (murojaat vaqti: 27.01.2024).

[5] O’zbekiston respublikasi konistitutsiyasi. Yurudik adabiyotlar publish toshkent 2023-78-modda 39-b

qaratilgan. Bu yo‘nalishda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tegishli xalqaro hujjatlar, parlamentning qonun va qarorlari, mamlakat Prezidentining g‘oyalari, tegishli farmon va farmoyishlari ijrosining samarasi o‘laroq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limda huquqiy ta’lim tizimi yaratildi. Bola huquqlarini o‘rganish masalasi mazkur tizimning tarkibiy qismiga aylandi.

XULOSA

Dekam ushbu maqola orqali Davlatimiz tomonidan bola huquqlarini nechog‘li kafolatlanganligini nafaqat mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan sa’y-harakatlarda, balki qator normativ–huquqiy aktlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar bobida tegishli javobgarlik normalari o‘rnatilgan.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida oila instituti funktsiyalarining bajarilishi masalasiga alohida e'tibor qaratib, oila a'zolariga oila va uning funktsiyalarini bajarilishi haqida saboq berish lozim.[6] chunki olia nafaqat jamiyatning bir bo’lagi balki voyga yetmagn farzandlarni o’sib ulga’yib kamol topadigan maskani hamdir. Ayni farzandlarga ota-onaning alohida meri va e’tibori kerak bo’lgan bir pallada xorijiy davlatlarda yurushi bu bolaning ta’lim olishi va ruxiy xolatiga jiddiy ta’sir ko’rsatishi mumkun.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYHATI

1. O’zbekiston respublikasi konistitutsiyasi. Yurudik adabiyotlar publish toshkent 2023-78-modda 39-b
2. O’zbekiston respublikasi konistitutsiyasi. Yurudik adabiyotlar publish toshkent 2023-77-modda 39-b
3. Амирхўжаев Шукуржон Қурбонович, & Ғуломжонов Одилжон
4. Рахимжон Ўғли (2022). Ижтимоий-фалсафий жиҳатдан оиланинг этномаданий хусусиятлари. Ta’lim fidoyilari, 14 (1), 133-143.
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York // O‘zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli “1966-yil 16- dekabrdagi fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrdan kuchga kirgan. Elektron manbaa: https://lex.uz/docs/2640479 (murojaat vaqti: 27.01.2024).
6. Madumarov Talantbek Tolibjonovich Andijon Davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti decani, Yuridik fanlari doktori, professor. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE
7. International scientific-online conference-22-b
8. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES. MIGRATSIYA SHAROITIDA BOLA HUQUQLARINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO STANDARTLAR VA MEXANIZMLARNING XUSUSIYATLARI Karimova Sadoqat Gulboevna akademiyasi magistranti-6-b

[6] Амирхўжаев Шукуржон Қурбонович, & Ғуломжонов Одилжон

Рахимжон Ўғли (2022). Ижтимоий-фалсафий жиҳатдан оиланинг этномаданий хусусиятлари. Ta’lim fidoyilari, 14 (1), 133-143.